

**Alimardon G'ANIYEV**

**O'ZINGGA  
YETMAYDI...**

She'rlar



«Farg'ona» nashriyoti,  
2015-yil.

821.512.133-1-Ўзбек адабиёти

UO'K: 821.512.533(575.1)

KBK: 84(5Ў)7

G'21

**G'ANIYEV, Alimardon**

**G'21 O'ZINGGA YETMAYDI...:** she'rlar/adabiy-badiiy nashr/  
A.G'aniyev. – Farg'ona: «Farg'ona» nashriyoti, 2015. – 32 bet.

Ushbu to'plamda yosh ijodkorning o'ziga xos ko'ngil bitiklari jamlangan. Bu she'rlarda shoir dilidan o'tgan kechinmalar, uni qiynayotgan yoxud o'ylantirayotgan his-tuyg'ular ifoda etiladi. Vatan, ona, yor mavzusidagi qaynoq satrlar she'riyat ixlosmandlariga manzur bo'ladi degan umiddamiz.

UO'K: 821.512.533(575.1)

KBK: 84(5Ў)7

ISBN: 978-9943-980-52-5

©A.G'aniyev – 2015.

20 16/42	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
A.1354	

## UMIDBAXSH SATRLAR

(*So'z boshi o'rnida*)

Alimardonning she'riy to'plamini o'qib chiqib, biroz xayolga toldim. Sir emas, hozirgi paytda shoir, ayniqsa, yosh shoir ko'p! Bu bir jihatdan quvonarli, albatta. Zero mamlakat hayotida dolg'ali o'zgarishlar, jamiyat turmushida ulkan voqealar ro'y berayotgan, mislsiz bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotgan damlarda badiiyat olamida ham o'ziga xos yuksalishu inqiloblar bo'y ko'rsatishi tarixdan ma'lum.

Alimardonning she'rlari samimiyligi, misralarning quymaligi, eng muhimi, yurakdan toshib chiqqanligi bilan diqqatni tortadi.

*Tong otganda yelkamga qoqib,  
Kun botganda yo'limga boqib,  
Ishonch-umid chirog'im yoqib,  
Duo qiling meni, onajon.*

yoki

*Duogo'y xalqingdan duolar olgin,  
Umr daftaringga bezak, zeb – o'sha!  
Qadrini hamisha muqaddas bilib,  
Vatanni sev, do'stim, Vatan deb yasha...*

kabi satrlar boshlovchi shoir kelajagiga umid uyg'otadi.

Yana shuni ham aytish kerakki, Alimardon o'z ustida ko'p ishlashi, qo'llayotgan har bir so'zi salmog'ini yurakdan his etishi zarur.

Yosh ijodkorning ilk to'plami nashr etilishi unga yana ilxom baxsh etishi, uni ijodning mashaqqatli va sir-sinoatli yo'liga dadilroq kirib borishga undashi tabiiy. Shu bois, kelajakda Alimardondan ko'plab diltortar she'rlar kutib qolamiz.

*Alisher IBODINOV,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.*

## VATAN DEB YASHA

Boylikni sevmagin, bir kun bitadi,  
Avvalo, Oллоhga shukur deb yasha.  
Mol-dunyo ortidan sarson quvmagin,  
Vatanni sev, do'stim, Vatan deb yasha.

Yashama dunyoda begona bo'lib,  
Yashama osmonda yagona bo'lib...  
Kubro-yu Temurdek mardona bo'lib,  
Vatanni sev, do'stim, Vatan deb yasha.

Shunday tinch, musaffo osmonni ko'rib,  
Jar solgin olamga qaddingni kerib.  
O'ylamay, u uchun boringni berib,  
Vatanni sev, do'stim, Vatan deb yasha.

Hayotdan besamar, behuda o'tma,  
Vijdoning munofiq-olchoqqa sotma.  
Berkinib shaytonning pinjida yotma,  
Vatanni sev, do'stim, Vatan deb yasha.

Duogo'y xalqingdan duolar olgin,  
Umr daftaringga bezak, zeb – o'sha!  
Qadrini hamisha muqaddas bilib,  
Vatanni sev, do'stim, Vatan deb yasha!





## O'ZBEKISTONIM

Jahonni hayratga solgan vatanim,  
Quchog'ingda baxtli o'tar har onim.  
Dunyo gulshanida go'zal chamanim,  
Suyukli maskanim, O'zbekistonim.

O'tmishi ulug'vor, iqboli buyuk,  
Gullarga bezangan bog'u bo'stonim.  
Yurakka yaqinim, dillarga suyuk,  
Ko'zim qorachig'i, O'zbekistonim.

Tunlari yulduzi, oyi parvona,  
Kunduzi charog'on, tiniq osmonim.  
Olamda betakror, yakka-yagona,  
Bir o'zingni sevgum, O'zbekistonim.

Ta'rifingda qancha jilvakor she'rlar,  
O'qisam, tugamas, bitmas dostonim.  
Barchasi shu so'zni takrorlab derlar:  
O'zligim, o'zbeгим, O'zbekistonim!



## ONAJON

Doim bizga mehribon,  
Beminnat do'st, qadrdon.  
Omon bo'ling har qachon,  
Dardkashginam, onajon.

Sho'xlik qilsam, chidaysiz,  
Asta boshim silaysiz.  
Tunni kunga ulaysiz,  
Bedorginam, onajon.

Mehringizdir soyabon,  
Kulfatdan asrar har on.  
Go'yo biz bog', siz bog'bon,  
G'amxo'rginam, onajon.

Alishmasman dunyoga,  
To'lib oqqan daryoga.  
O'xshaysiz keng samoga,  
Mehribonim, onajon.



## DUO QILING MENI, ONAJON

Tashvishlardan yiqilsam, suyab,  
Mehr bilan boshimni silab,  
Yaratgandan baxtimni tilab,  
Duo qiling meni, onajon.

Tong otganda yelkamga qoqib,  
Kun botganda yo'limga boqib,  
Ishonch-umid chirog'im yoqib,  
Duo qiling meni, onajon.

Yo'lamasin bevaqt dard-alam,  
Havas qilsin jumlai olam,  
Yaxshi odam bo'lsin deb bolam,  
Duo qiling meni, onajon.

Qo'llarimda ko'tarib yuray,  
Har xizmatga bel bog'lab turay,  
Yurtga loyiq bir farzand bo'lay,  
Duo qiling meni, onajon.



## NONINGIZNI SOG'INDIM

Begona yurtlarda nasiba izlab,  
To'g'risi, ozgina og'rindim bugun.  
Saharda uyg'onib, asta pichirlab,  
Onamning nonini sog'indim bugun.

Boylikning izidan ovvora kezib,  
Ketgandim otamning yuragin ezib.  
Endi-chi, bularning baridan bezib,  
Onamning nonini sog'indim bugun.

Begona odamlar ichida yurib,  
Bir chetda jimgina xayollar surib,  
Ne qilay, boshimni devorga urib,  
Onamning nonini sog'indim bugun.

Yuragim to'lmaydi, hamisha bir kam,  
Yuragimda dardu kiprigimda nam,  
Roziman, sal suvi qochgan bo'lsa ham,  
Onamning nonini sog'indim bugun.

Dardimni eshitar sirdosh so'roqlab,  
Suratin quchoqlab ovundim bugun...  
Muloyim jilmaygan chehraga qarab,  
Onamning nonini sog'indim bugun.



## OLTIARIQQA YETMAYDI

Jannatmonand o'lkada  
Shahar ko'p, qo'l yetmaydi.  
Ammo, do'stlar, baribir  
Oltiariqqa yetmaydi.

Toshkent, Qo'qon go'zaldir,  
Tarifi ming g'azaldir...  
Go'zalligi azaldir –  
Oltiariqqa yetmaydi.

Yigitlari mard, o'g'lon,  
Qizlari shirin zabon.  
Men uchun boshqa makon  
Oltiariqqa yetmaydi.

London, Parij zo'r bo'lib,  
Tog'u bog', gulzor bo'lib,  
Hamma shahar bir bo'lib,  
Oltiariqqa yetmaydi.

Kunduz porlab quyoshi,  
Tunda yulduz sirdoshi.  
Gul undirar qum, toshi,  
Oltiariqqa yetmaydi.

Qancha maqtay, shuncha oz,  
Qo'lga olgin tez qog'oz.  
Aytib turay, qani, yoz,  
Oltiariqqa yetmaydi.

Alining bu qissasi,  
Aytsam, hali bitmaydi.  
Xullas, gapning qisqasi,  
Oltiariqqa yetmaydi!

## BARDOSHIM O'ZING

Ishlarim yurishmay, ortga ketsa-da,  
Yaqinlar ustimdan kulib ketsa-da,  
Yuragim urishdan to'yib ketsa-da,  
Chidayman,  
bardoshim,  
darddoshim o'zing, ISHQ.

Dushmanim g'iybatlar qilib tursa ham,  
Har bir qadamida qarg'ab yursa ham,  
Mayli, hamma meni yomon ko'rsa ham,  
Chidayman,  
bardoshim,  
darddoshim o'zing, ISHQ.

Ko'zlarim yoshlarga to'lib ketdi-ku,  
Tuhmat toshlarini tinmay otdi-ku,  
Suyganim o'tlarga tashlab ketdi-ku...  
Chidayman,  
bardoshim,  
darddoshim o'zing, ISHQ!



## ALAM QILARKAN

Suyganingni sog'inib kutib,  
Ko'rolmasang, alam qilarkan.  
Ishq bog'ida qo'ldan tutib  
Yurolmasang, alam qilarkan.

Takror-takror izhorlar qilib,  
Ko'nglidagi gaplarin bilib,  
Sevasanmi, deya bir kulib  
So'rolmasang, alam qilarkan.

Tinchlik bermay qo'ysa savollar,  
Gul o'rmini bossa xazonlar...  
Usiz bir zum shirin xayollar  
Surolmasang, alam qilarkan.

Sog'indim deb rasmini quchib,  
Chin oshiqlar qasamin ichib,  
Qanot qoqib yoniga uchib  
Borolmasang, alam qilarkan.

Unda bo'lib fikr-u xayoling,  
G'arib bo'lib qolsa ahvoling,  
Dilingdagi jo'shqin savoling  
Berolmasang, alam qilarkan.

Sevgi to'la qalbingni unga  
Yorolmasang, alam qilarkan.  
Ko'rishganda ohu ko'ziga  
Qarolmasang, alam qilarkan...



## ARMONIM

Sevishim aytolmadim  
Yo ortga qaytolmadim,  
Taqdirimiz shu ekan –  
Bosh olib ketolmadim.

Dilda so'zim bor edi,  
Yurak senga zor edi.  
Menga azob va qayg'u,  
Senga quvonch yor edi.

Sevgimni asrar edim,  
Fursatni poylar edim.  
Tunlarim bedor o'tib,  
Sirdoshim – oylar edi.

Ammo fursat bo'lmadi,  
Biroz jur'at yetmadi.  
Osmondagi yulduzsan,  
Mening qo'lim yetmadi.

O'zing eding bahorim,  
Gul ochilgan har onim.  
Endi qiynar bu alam –  
Bo'lding mangu armonim.



## BEGONA BO'LDIM

Izingni zor qidirib yurib,  
Aqli noxush devona bo'ldim.  
Yoningda ham yodingda turib,  
Bugun senga begona bo'ldim.

Xayolimda surating chizib,  
Tushlarimda sen bilan qoldim.  
Bugun seni ko'rishim sezib,  
Tabassuming yodimga oldim.

Chiqib kelding nogoh yo'limdan,  
Topdim, deya boqdim yuzingga.  
Biroq hech ish kelmay qo'limdan,  
Termulgancha qoldim ko'zingga.

Aytgin, nechun ravo ko'rmasan  
Bir bor qarab kulib qo'yishni?  
Yo shunchalar yaxshi ko'rarsan  
Azob berib dilim o'yishni?!

Bir tabassum hadya et, gulim,  
Yuzing burib o'tma yonimdan.  
Sen Alini unutgan kuning  
Voz kechaman shirin jonimdan...

Nahot, senga begona bo'ldim?!



### **BIR KUN...**

Kelar hali shunday kun,  
Yorishadi hatto tun.  
Hijron azob bersa ham,  
Bo'lar muhabbat ustun.

Qayg'u ketadi yiroq,  
Yonar qalbimda chiroq.  
Barchasi unut bo'lar,  
Unut bo'ladi firoy.

Sezib qolar kun kelib...  
Anglar bir kun sevishim.  
Aytadi u ham kulib  
Meni jondan sevishin.

### **MENI KECHIR**

Sig'mayapman yorug' olamga,  
Hafa qildim qaysi yuz bilan?  
G'amga botgan ma'yus ko'zingga  
Qaray endi qaysi ko'z bilan?

Xato qildim o'ylamay nechun,  
Kechir endi, kechiraqolgin.  
Bu gunohim pok yuragingdan  
O'chir endi, o'chiraqolgin.

Bilasanmi, halovatim yo'q  
Xafa qilib qo'ygan onimdan.  
Yuragimda yonmoqdadir cho'g',  
Yuz o'girib, ketma yonimdan...

## KULIB QO'YSANGIZ

O'ldirolmas hatto o'q,  
Sevgim qabul qilsangiz.  
Mendan baxtli inson yo'q,  
Bitta kulib qo'ysangiz.

Xursand bo'lib ketaman,  
Gullar hadya etaman,  
O'zga yorni netaman  
Bitta kulib qo'ysangiz?

Yurakda gul ochilar,  
So'zlardan nur sochilar,  
Darrov borar sovchilar  
Bitta kulib qo'ysangiz.

Baxt qasrini quramiz  
Qo'l ushlab yuramiz.  
Gulim, baxtli bo'lamiz,  
Bitta kulib qo'ysangiz.



## PARVONAMAN BUGUN

Ko'zlarim yo'lingga zor,  
Yuragim xasta, bemor.  
Bir ko'rishga intizor  
Devonaman men bugun.

Yoningga hech borolmay,  
Ko'zingga tik qarolmay,  
Ko'nglingga yo'l topolmay,  
Hayronaman men bugun.

Qoldim senga boylanib,  
Azob chekdim o'ylanib.  
Atrofigda aylanib,  
Parvonaman men bugun.

Ajralmas soya bo'ldim,  
Eng ezgu g'oya bo'ldim,  
Tog' deding, qoya bo'ldim,  
Vayronaman men bugun.

O'ylab o'yga yetolmay,  
Dardim oshkor etolmay,  
Qo'lingdan bir tutolmay  
Begonaman men bugun.



## FARISHTAM...

Yaxshiyam, baxtinga dunyoda borsiz,  
Yonimda bo'lsangiz, sezilmaydi g'am.  
Yorug'lik elchisi – nafis oq qorsiz,  
O'zimning beozor, go'zal farishtam.

Loyiqsiz bir umr sevib yashashga,  
Ko'kdagi yulduzni quchib yashashga.  
Urinmang taqdiri kutib yashashga,  
O'zimning beozor, go'zal farishtam.

Ha, o'sha devona-dalliman o'zim,  
Boqib hech to'yamaydi sizga bu ko'zim.  
Yurakdan sevaman – yigitlik so'zim,  
O'zimning beozor, go'zal farishtam!

## CHIN OSHIQ

Senga qarab, negadir,  
Ko'zim sira to'yamaydi.  
Bu ish jonga tegadir –  
Yurakkinam qo'yamaydi.

Sadoqatim mangudir,  
Muhabbatda Tohirman.  
Ishqing kuyladim, yondim,  
Keyin bo'ldim shoir man.

Sensiz yurak ko'nmaydi,  
So'zim – so'zdir, qaytish yo'q.  
Sevgi guli so'lmaydi,  
O'zga yo'lga qaytish yo'q!

20/16/72

A/1354

Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MK

## DO'STIM TASHLAB KETDI-YA

Xazon bo'lib yosh umri  
Poyoniga yetdi-ya,  
Qaytmas bo'lib bir umr  
Do'stim tashlab ketdi-ya.

Ko'z o'ngimda bir shamdek  
So'ndi, umr bir damdek,  
Endi dunyo bir kamdek –  
Do'stim tashlab ketdi-ya.

Dushman bo'lib sabrga,  
Shoshib zulmat qabrga.  
Yosh aylandi abrga,  
Do'stim tashlab ketdi-ya.

Ohim yetmay falakka,  
Hanjar urib yurakka,  
Yetolmay ne tilakka,  
Do'stim tashlab ketdi-ya.

Kutib so'nggi yo'lini,  
Dardga siltab qo'lini,  
Umrning ham mo'lini  
Do'stim tashlab ketdi-ya.





## XAYOLIMNI OLGAN QIZ...

Ko'z solmasin begona,  
U chiroyda yagona.  
Kiyinar o'zbekona,  
Xayolimni olgan qiz,  
Yurakka dard solgan qiz.

Ta'riflashga til ojiz,  
So'z kelmaydi bir og'iz.  
Siz tengi yo'q go'zalsiz,  
Xayolimni olgan qiz,  
Yurakka dard solgan qiz.

Gulim deymi men sizni,  
Jonim deymi yo sizni?  
Bo'ldi, qiynamang bizni,  
Xayolimni olgan qiz,  
Yurakka dard solgan qiz.

So'zga quloq solmayman,  
Ortingizdan qolmayman.  
Sevdim, kecha olmayman,  
Xayolimni olgan qiz,  
Yurakka dard solgan qiz!



## KETING, DEB QIYNAMA

Umidli ko'zlarim qarab turganda,  
Yuzlaringni mendan yashirma, gulim.  
Yuragim sen deya urib turganda,  
Keting, deb qiynama faqat, sevgilim.

Mayliga, kunlarim o'tsin azobda,  
Bu oppoq orzular qolsin sarobda.  
Jimgina yonayin ming iztirobda,  
Keting, deb qiynama faqat, sevgilim.

Qalbdagi sevgimni o'zgalar bilib,  
O'tsinlar, roziman, ustimdan kulib.  
Qo'lingga tutqazay yuragim yulib,  
Keting, deb qiynama faqat, sevgilim.

Haydasang, devona bo'lib qolaman,  
Uzilgan gul kabi so'lib qolaman.  
Sensiz men bir kun o'lib qolaman,  
Keting, deb qiynama faqat, sevgilim.

Izingdan sarsonu sargardon kezay,  
Firoqda qiynalib, yuragim ezay,  
Mayliga, sevgidan butunlay bezay,  
Keting, deb qiynama faqat, sevgilim.



## **KO'RNASAM...**

Ezaverar g'amlar boshimni,  
To'xtatolmam ko'zda yoshimni,  
Zaharlaydi shayton oshimni,  
Yolg'izimni bir kun ko'rmasam.

Bo'lar menga begona kulgu,  
Atrofimni chulg'aydi qayg'u.  
Kechalari kelmaydi uyqu,  
Yolg'izimni bir kun ko'rmasam.

Ishonmayman o'tgan kunimga,  
Uni chindan ko'rmaganimga.  
Hasratlarim aytaman kimga,  
Yolg'izimni bir kun ko'rmasam?

Keng dunyoga sig'may qolaman,  
Hasrat, g'amga to'la nolaman.  
Dilga firoq o'tin solaman,  
Yolg'izimni bir kun ko'rmasam.



## MEN...

Men shoir emasman,  
Oddiy bir inson.  
Hayot yo'llarida sarson yo'lovchi –  
Ko'pchilik qatori baxtin izlovchi

Men shoir emasman,  
Balki bir oshiq.  
Bir malak ishqida azob chekuvchi –  
Dillarga muhabbat gulin ekuvchi.

Men shoir emasman,  
Shunchaki telba.  
Bir malak yonida tosh kabi qotgan –  
Muhabbat ko'yida aqlin yo'qotgan.

Men shoir emasman,  
Ojiz, notavon.  
Kim yaxshi-kim yomon bilolmaydigan –  
Hatto o'z baxtini ko'rolmaydigan.

Men shoir emasman...



## MENGA JOY YO'QMIDI?..

Dunyoda chin sevgi topdimi zavol,  
Chorasiz qoldirding keragingda, yor.  
Yurakni qiynaydi tinmay bir savol:  
Menga joy yo'qmidi yuragingda, yor?

Izingdan telbadek yurdim aylanib,  
Parvo qilmading-a, ketdim qiynalib.  
Tushunib yetmadim shuncha o'ylanib,  
Menga joy yo'qmidi yuragingda, yor?

Izhor qilolmadim, netay, sevgimni,  
O'ylardim topdim deb balki tengimni.  
Nahotki, yuraksiz qizni sevdimmi,  
Menga joy yo'qmidi yuragingda, yor?

Kunlarim o'tmoqda sog'inch, firoqda,  
Ertangi kunim ham qolar so'roqda.  
Ayt, qanday yashayman sendan yiroqda,  
Menga joy yo'qmidi yuragingda, yor?



## YARIM KO'NGIL

Osmonda oy to'ldi-yu, ammo  
Yarim ko'nglim to'lmadi, netay?  
Giryon izlab, go'zal yorimni  
Topolmasam, qaylarga ketay?

Sog'inch hissi yuragim tirnab  
Qiynayverar xasta bu jonni.  
Axir, qanday o'tkazay usiz  
Azoblarda qolar bir onni?

Ishonmayman, ishongim kelmas  
Bu iztirob, bunday azobga.  
Dilimdagi qancha orzular  
Aylandimi butkul sarobga?

O'rtamizga tushdimi firoq,  
Deya ba'zan o'yga tolaman,  
Nahot, endi armonlar bilan  
Ishq uyida yolg'iz qolaman?..

Bo'ldi. Yetar, yomon xayollar,  
Mendan uzoq-uzoqqa keting,  
Oshiq qalbim sarhadlarini  
Bir umrga endi tark eting!



## SENI SEVAMAN

Qancha desang kutay, yor,  
Dardu alam yutay, yor.  
So'ra, jonim beraman,  
Chunki seni sevaman.

Mening qadrim bilmasang,  
Hech nazarga ilmasang,  
Bu yerlardan ketaman,  
Chunki seni sevaman.

Senga she'rlar bitaymi?  
Ishqim oshkor etaymi?  
Aytgin, sensiz netaman?  
Chunki seni sevaman.

Birgina so'z ayt, kulay,  
Kunlarni tunga ulay.  
O'zim tasadduq bo'lay,  
Chunki seni sevaman.





## SEVAR YORIM BOR

Muhabbatga oshno aylagan,  
Yuragimga ismin joylagan,  
Yonimda ham meni o'ylagan,  
Tanlaganim, vafodirim bor.

Izlab-izlab, oxir topganim,  
Ishq bog'ida baxti chopganim,  
Shirin orzu-o'yga cho'kkanim,  
Qalam qoshim, beg'uborim bor.

Dilim yoqib, beparvo o'tib,  
Atay kulib, o'tlarga otib,  
Sevgisini pinhona tutib,  
Kuydirganim, jafokorim bor.

Har zamonda termulib qarab,  
Sochlarini ohista tarab,  
Boqishlari qalbga o't qalab,  
Suydirganim, go'zal yorim bor.



## IQROR

Kirib keldi qalbimga birdan  
Muhabbatning sovuq shamoli.  
Xayolimni oldi-yu chindan  
Madinaning go'zal jamoli.

Go'zal yuzli, nozik farishtam,  
Osmonda oy, yerda – o'zlari.  
U shunchalar chiroyli, ko'rkam,  
Aqlim olar jodu ko'zlari.

Xomush bo'lib qoladi goho  
Qayerlarga ketar xayoli?  
Meni maftun aylagan tanho  
Yuzidagi bir dona xoli.

Bu dunyoda yolg'iz tilagim  
O'shal yordir, yo'q shubha-gumon.  
Chiroyligim, g'o'zal malagim,  
Sen o'zingsan, so'zimga ishon.



## SEVILMAGAN OSHIQLAR

Alamlardan yosh to'lganmi ko'ziga,  
Tabassum ham yarashmaydi yuziga.  
G'am-alamni do'st tutingan o'ziga,  
Jondan sevib, sevilmagan oshiqlar.

Ko'ngil berib, ammo baxtga yetmagan,  
Haydasa ham, yonidan hech ketmagan,  
Dil yarosi hanuzgacha bitmagan,  
Jondan sevib, sevilmagan oshiqlar.

Arziydilar butun umr kutishga,  
Munosibmas yolg'iz tashlab ketishga.  
Haqlari bor sevilishga, sevishga,  
Jondan sevib, sevilmagan oshiqlar.

Tinmay hayot sinayversa sabrini,  
Yakka o'zi tortaverar jabrini,  
Bildirmaydi o'zgalarga dardini,  
Jondan sevib, sevilmagan oshiqlar.



## **SOG'INMADINGMI?..**

Dilda hasrat yig'ilib ketdi,  
Ko'zda sog'inch sezilib ketdi,  
Yurak seni sog'inib ketdi,  
Sen-chi, bir bor sog'inmadingmi?

Yo'llaringda zor bo'lib kutdim,  
Yuragimni qo'lingga tutdim,  
Bor dardimni ichimga yutdim,  
Sen-chi, bir bor sog'inmadingmi?

Muhabbati o'tlarga otgan,  
Yulduz quchib, oylarda yotgan,  
Majnuningman aqlin yo'qotgan,  
Sen-chi, bir bor sog'inmadingmi?

## **UCHRASHAYLIK**

Yuragimni yoqqan qiz,  
Ayting, buncha go'zalsiz –  
Oshiq ALI ahvolin  
Uchrashganda ko'rasiz.  
Ko'rgim keladi yana  
Uchrashaylik, Madina.

Yana qancha qiynaysiz,  
Bardosh bermas yuragim,  
Nahot shafqat qilmaysiz  
Yoki yo'qmi keragim?  
Yuragimni ol, mana,  
Uchrashaylik, Madina!

## DO'STIM, YORDAMING KERAK

Aqlim «qil» deb buyurgan ishga,  
Netay, axir, ko'nmasa yurak?  
Ajib savdo tushdi bu boshga,  
Do'stim, menga yordaming kerak.

Atrofimda mingta o'y-xayol,  
Har birida o'zgacha tilak.  
Faqat senga kelmasin malol,  
Do'stim, menga yordaming kerak.

Anglamaydi meni o'zgarar,  
Tushunmaydi hatto bu falak.  
Iztiroblar bag'rim tilkalar,  
Do'stim, menga yordaming kerak.

Bunday ajib savdo qoshida  
Ojiz ekan kuch to'la bilak.  
Dunyoning bir chigal ishida,  
Do'stim, menga yordaming kerak.



## Mundarija

Umidbaxsh satrlar ( <i>A.Ibodinov</i> ) .....	3
Vatan deb yasha .....	4
O'zbekistonim .....	5
Onajon .....	6
Duo qiling meni, onajon .....	7
Noningizni sog'indim .....	8
Oltiariqqa yetmaydi .....	9
Bardoshim o'zing .....	10
Alam qilarkan .....	11
Armonim .....	12
Begona bo'ldim .....	13
Bir kun... ..	14
Meni kechir .....	14
Kulib qo'ysangiz .....	15
Parvonaman bugun .....	16
Farishtam... ..	17
Chin oshiq .....	17
Do'stim tashlab ketdi-ya .....	18
Xayolimni olgan qiz... ..	19
Keting, deb qiynama .....	20
Ko'rmasam... ..	21
Men... ..	22
Menga joy yo'qmidi?.. ..	23
Yarim ko'ngil .....	24
Seni sevaman .....	25
Sevar yorim bor .....	26
Iqror .....	27
Sevilmagan oshiqlar .....	28
Sog'inmadingmi?.. ..	29
Uchrashaylik .....	29
Do'stim, yordaming kerak .....	30

*Adabiy-badiiy nashr*

**Alimardon G'ANIYEV**

**O'ZINGGA YETMAYDI...**

*She'rlar*

*Muharrir:*

Hayotjon Boyboboyev

*Tex. muharrir:*

Nazirjon Hoshimov

*Dizayner:*

Sotvoldi Hasanov

Nashriyot litsenziyasi: A.I.№ 162. 2009-yil 14-avgust.  
Terishga berildi: 02.10.2015-y. Bosishga ruxsat etildi:  
16.12.2015-y. Nashriyot bosma tabog'i: 1,0. Shartli bosma  
tabog'i: 1,25. Bichimi: 84x108<sub>1/32</sub>. Times garnituras.  
Ofset usulida bosildi. Adadi: 500 nusxa. Buyurtma № 331.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Farg'ona» nashriyoti.

150114. Farg'ona shahri, Sohibqiron Temur ko'chasi, 28-uy.

«Print Line Group» x/k bosmaxonasi.

100097. Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44-uy.